

**TURKISTON YOSHLARINING MILLIY, MADANIY IJTIMOIY
UYG'ONISHDA VA RAVNAQIDA JADIDCHILIKNING TUTGAN O'RNI**

*Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti 2-bosqich talabasi
Zarina Mirzaliyeva Jahongir qizi*

ANNOTATSIYA

Maqolada jadidlar faoliyatini va ularning barkamol avlod tarbiyasi masalalari yuzasidan qarashlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Jadid, jadidlar, sho'ro tuzimi, mafkura, ma'rifatparvarlik, iqtisodiy tazyiqlar.

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jadid so'zi (arabcha "jadid"- yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdarlarining umumiyl nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi. XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari - Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkanning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g'oyalar avvalambor yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda g'oyaviy jipslashtirish, ularni o'lka taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar.

Jadidlarmiz oliy o'quv yurtining zaruratini teran his qildilar va barcha imkoniyatlardan foydalanishga urindilar.. Ular so'nggi uch-to'rt asr davomida tushkun holga tushib tarixni unutayozgan millatimizga tarix shuurini singdirishga va

u orqali yangi ruh baxsh etishga urindilar. Darhaqiqat, milliy shuurni tarix shuuri maydonga keltiradi. Tarix shuuri esa tarixni tanimoqdir. Shu boisdan ham, vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g'oya eng ilg'or qarashli jadid ziylolarining fikrida bo'lgani holda, mavjud sharoitda uni amalga oshirish mushul edi. Unga faqat tinimsiz ma'rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt mustaqilligini, istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar asosida yetuk mutaxasislarsiz tasavvur eta olmaganlar. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishini, ongsaviyясини ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmusxoja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi"¹.

Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmlli, ma'rifatli, eng assosiysi esa otaonalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallahsga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan. Jadidlar ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallahslari kerakligini uqtirganlar. Adabiyotlarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o'qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo labaratoriyaning borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo'lib, ona-Turkistonning taraqqioyotdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi.

Abdulla Avloniy inson tarbiyasini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uch yo'nalishga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi. Inson uuchn avvalo badan salomat bo'lmog'i zarurdir, badan soq bo'lgandagina inson uchun zarur bo'lgan boshqa amallarni singdirish mumkin. Buning uchun ichkilik, ko'knor, nasha kabi inson badanini bevaqt zalolatga, tubanlikka olib boruvchi, salomatlikka zarar, «ba'zi harom, ba'zi makruh» narsalardan asrashi kerak. Bu esa Avloniy yozishicha, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi². Fikr tarbiyasi farzandni komil

¹. A.Zunnunov-Pedagogika tarixi. –T.: Sharq, 2004

² Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. "Turkiy guliston yoxud axloq". –T.: Ma'naviyat, 2006, 34-96 betlar.

inson darajasiga ko‘tarishda muhim omil hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas’uliyat o‘qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o‘quvchilarni fikrlashga, hari qanday voqeа hodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o‘rgatadi. Bu o‘rinda Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo‘lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafga, barkamollikka erishadi, bu o‘rinda o‘kituvchinnig fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o‘quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega³. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o‘quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo‘lgan yaxshi xulqlarni egallahsga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo‘lishga o‘rgatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy yo’l bilan yechish yo’llarini jadidlar o’z maqola va asarlarida ko’rsatganlar. Yoshlarni o’qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniy-ma’naviy saviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo’jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyatraboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Eng asosiysi, farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallahslari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham O‘zbekistonda davlat va jamiyatning bosh maqsadi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Zunnunov-Pedagogika tarixi. –T.: Sharq, 2004
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. “Turkiy guliston yoxud axloq”. –T.: Ma’naviyat, 2006, 34-96 betlar.
3. Siddiqiy. Miroti Ibrat, Samarkand, 1914.
4. Avloniy. Toshkent tonggi, T. 1979,373-bet.
5. Y.Tohiriyy. Dono murabbiy, “Toshkent oqshomi”,1998,10.
6. L.Azizzoda. Yangi hayot kuzatuvchilar, “Fan”, T.1998.37 son.
7. Abdulla Avloniy. Adabiyot yoxud milliy she’rlar. 1909, 1-3-betlar.

³Avloniy. Toshkent tonggi, T. 1979,373-bet